

**“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ  
yagona aksiyadorining  
2024 yil 14 -iyundagi  
77-son qaroriga 1-ilova**

**«O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI»  
AKSIYADORLIK JAMIYATINING  
DIVIDEND SIYOSATI**

**Toshkent 2024 yil.**

## **1.UMUMIY QOIDALAR**

1.Ushbu Siyosat O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 oktyabrdagi PQ-329-sonli Qarori hamda boshqa me’yoriy- normativ hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Jamiyatning dividend siyosati aksiyadorlarning farovonligini oshirish va Jamiyatning kapitallashuvini, o‘sishini ta’minalashga qaratilgan. Siyosat o‘zining aksiyadorlarini va boshqa manfaatdor shaxslarni Jamiyatning dividend siyosati haqida xabardor qilish maqsadiga ega. Jamiyatning dividend siyosati Jamiyatning investitsion jozibadorligi va kapitallashuvining o‘sishini ta’minalashga qaratilgan va yagona aksiyadorni va boshqa manfaatdor tomonlarni Jamiyatning dividend siyosati to‘g‘risida xabardor qilishga qaratilgan.

Dividend - jamiyat sof foydasining aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadigan qismi bo‘lib, yagona aksiyadorga to‘lash uchun yo‘naltiriladi.

Agar Jamiyat aksiyadorlariga dividendlar to‘lash bilan bog‘liq qaysidir masalalar O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarining himoyasi to‘g‘risida”gi Qonuni normalari bilan, O‘zbekiston Respublikasining boshqa me’yoriy hujjatlari bilan Jamiyat ustavi va ushbu Siyosat bilan tartibga solinmagan bo‘lsa, unday taqdirda ular aksiyadorlarning huquq va manfaatlarini ta’minalash zaruratidan kelib chiqib hal qilinishi lozim.

3.Jamiyat kapitallashuvning o‘sishiga aksiyadorlarning Jamiyat aksiyalaridan daromadlar chiqarish bo‘yicha mulkiy manfaatlarini qondirishning asosiy usuli sifatida qaraydi. Dividend siyosati Jamiyat tomonidan olingan foydaning iste’mol qilinadigan va aksiyalarning bozor bahosini oshirish maqsadida kapitallashtirish o‘rtasidagi nisbatni maqbullashtirishdan iborat.

Jamiyat tomonidan tuzilgan shartnomalarda jamiyatning yagona aksiyadori foydasiga dividendlar to‘lash uchun hech qanday cheklovlar bo‘lmasligi kerak.

4. Jamiyatning dividend siyosati quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

-shaffoflik tamoyili, bunda dividend siyosatini amalga oshirishda ishtirok etayotgan tomonlarning majburiyatları va javobgarligi to‘g‘risidagi, shu jumladan, dividendlar to‘lovi va miqdori xususida qaror qabul qilish tartibi va shartlari borasidagi axborotlarni aniqlash va oshkor etish nazarda tutiladi;

-o‘z vaqtidalik tamoyili, dividend to‘lovlarini amalga oshirish chog‘ida vaqt chegaralarini o‘rnatishni nazarda tutadi;

-asoslanganlik tamoyili, bu dividendlar to‘lovi va miqdori to‘g‘risidagi qaror, faqat Jamiyat tomonidan taraqqiyot rejali va uning investitsiyaviy dasturlarini inobatga olgan holda, ijobjiy molivaviy natijalarga erishilgan taqdirdagina qabul qilinishi mumkinligini anglatadi;

-adolatlilik tamoyili, aksiyadorlarning dividendlar to‘lovi, miqdori va to‘lash tartibi to‘g‘risida qabul qilinadigan qarorlar borasidagi axborotlarni olishga bo‘lgan teng huquqlarini ta’minalashni anglatadi;

-izchillik tamoyili, dividend siyosati protseduralari va tamoyillarining ijo etilishini anglatadi;

-rivojlanish tamoyili, korporativ boshqaruv protseduralarini yaxshilash va Jamiyatning strategik maqsadlari o'zgarishi munosabati bilan uning qoidalarini qayta ko'rib chiqish doirasida dividend siyosatini doimiy takomillashtirishni ko'zda tutadi;

-barqarorlik tamoyili, Jamiyatning dividend to'lovlarining turg'unlik darajasini ta'minlashga intilishini anglatadi.

5. Joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash yoki to'lamaslik to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga Jamiyatning yagona aksiyadori ega.

Yagona aksiyador mamlakat rahbariyatining xususiy lashtirish, restrukturizatsiya, transformatsiya va boshqa muhim sohalar bo'yicha ko'rsatmalarini bajarish doirasida mol-mulk yoki aktivlar bilan bir martalik bitimlar tuzilgan taqdirda maxsus dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir

6. E'lon qilingan dividendlarni to'lash Jamiyatning majburiyati hisoblanadi. Jamiyat ushbu majburiyatni bajarmaganlik uchun aksiyadorlar oldida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi muvofiq javobgar bo'ladi.

Quyidagi aksiyalar bo'yicha dividendlar hisoblanmaydi va to'lanmaydi:

- muoamalaga chiqarilmagan (joylashtirilmagan);
- Jamiyat balansiga sotib olingan va/yoki pul to'lab qaytarib olingan;
- O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

## **2. DIVIDENDLAR MIQDORINI ANIQLASH VA HISOBBLASH TARTIBI**

7. Jamiyat moliyaviy yilning natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

Agar jamiyat tegishli davr uchun konsolidatsiyalangan sof zarar olgan bo'lsa, dividendlar hisoblanmaydi.

Dividendlar jamiyatning jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi. Jamiyatning moliyaviy ahvoli yomonlashuvining oldini olish uchun dividendlar uchun mablag' aylanmasidan olinishi natijasida Jamiyat foyda hisobidan zaxira fondini tashkil qiladi, va har yili Jamiyatning sof foydasining kamida 5 foizi ajratadi. Shu bilan birga, Jamiyat ixtiyorida taqsimlangandan keyin qolgan foyda, Jamiyatning kapitallashuvini oshirish uchun qayta investitsiyalash uchun ishlatiladi.

8. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror jamiyat kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida yagona aksiyador tomonidan qabul qilinadi. Yagona aksiyador aksiyalarning muayyan turlari bo'yicha dividendlar to'lamaslik to'g'risida, shuningdek jamiyat ustavida dividend miqdori belgilab qo'yilgan imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'liq bo'limgan miqdorda dividendlar to'lash haqida qaror qabul qilishga haqli.

9. Dividendlar to'lash haqidagi qaror (e'lon) bilan quyidagilar aniqlanishi lozim:

- aksiyalarning ular bo'yicha dividendlar to'lanadigan (e'lon qilinadigan) toifasi (turi)ni;
- muayyan toifadagi bitta aksiyaga to'lanadigan hisobdan kelib chiqqan holda dividend miqdorini;
- dividendlar to'lash muddati va tartibini.

Dividendlar to'lanishi chog'ida aksiyadorlardan hech qaysi biri to'lov muddatlari bo'yicha ustunlikka ega bo'lmaydi.

10. Aksiyadorlar yig'ilishiga barcha turdag'i aksiyalar bo'yicha tavsiya etiladigan dividendlar miqdori Kengash tomonidan quyidagi omillardan kelib chiqqan holda belgilanadi:

- tegishli davr uchun soliqlar to'langanidan keyin kompaniya ixtiyorida qoladigan xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS) bo'yicha tekshirilgan moliyaviy hisobotga muvofiq konsolidatsiyalangan sof foyda miqdori;
- jamiyatning kelgusi davrlar uchun moliyaviy-iqtisodiy rejasi, shuningdek, yagona aksiyador (davlat) foydasiga kengaytirilgan dividendlarni to'lash faktlari va rejalar;
- Jamiyatning tegishli davr oxirida muomalada bo'lgan vositalari tuzilishini;
- Jamiyatning tegishli davr oxiridagi qarz yukini.

11. Tavsiya etiladigan dividendlar miqdorini aniqlash chog'ida Kengash Jamiyatning kelgusi davrlarga mo'ljallangan moliyaviy-xo'jalik rejalarini, Jamiyatning muomalada bo'lgan vositalari va majburiyatlarining joriy va istiqboldagi holatini e'tiborda tutmog'i lozim. Jamiyat yagona aksiyadori Kengash tomonidan tavsiya etiladigan dividendlar to'lovi, Jamiyat tomonidan kelgusi davrlar uchun tasdiqlangan moliyaviy-xo'jalik rejasida ko'zda tutilmagan qo'shimcha qarzga oid moliyalashtirishlar jalg' etilishiga olib kelmasligi lozim.

### **3. DIVIDENDLAR TO'LASH TARTIBI VA MUDDATLARI**

12. Jamiyat dividendlarni pul vositalari bilan yoki to'lovning boshqa qonuniy vositalari bilan yoxud jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'laydi. E'lon qilingan dividendlar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida to'lanadi.

13. Dividendlarni to‘lash muddati tegishli qonun hujjatlariga asosan yagona aksiyadori qarori bilan belgilanadi.

14. Agarda Jamiyatning qimmatli qog‘ozlari egalari qo‘sib hisoblangan dividendlarni yagona aksiyadori tomonidan belgilangan muddatlarda ololmagan bo‘lsalar, Jamiyat bunday (olinmay yotgan) dividendlarni to‘lashda davom etadi. Olinmay yotgan dividendlarni to‘lash davri Jamiyat tomonidan e’lon qilingan dividendlarni to‘lash bo‘yicha majburiyatini ijro etish muddati tugagan sanadan boshlab uch yildan oshmasligi lozim. Olinmagan dividendlar uchun foizlar qo‘sib hisoblanmaydi va to‘lanmaydi.

15. Jamiyatning o‘z funksiyalari qatorida aksiyador bilan ishni tashkil etish va olib borishga mas’ul bo‘lgan tarkibiy bo‘linmasi Jamiyatning buxgalteriyasi bilan birgalikda Jamiyat tomonidan dividendlarni to‘lash bo‘yicha ushbu Siyosatda ko‘zda tutilgan barcha tadbirlarni tayyorlash, muvofiqlashtirish va o‘tkazishni amalga oshiradi.

16. Aksiyador o‘ziga oid ma’lumotlardagi o‘zgarishlar haqida uning aksiyalarga bo‘lgan huquqlarini hisobga olish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi Markaziy depozitariyni va (yoki) investitsiya vositachisini o‘z vaqtida xabardor qilishi shart. Aksiyador o‘ziga oid ma’lumotlar o‘zgarganligi haqidagi axborotni taqdim etmagan hollarda, aksiyadorning o‘z aksiyalariga bo‘lgan huquqlarini hisobga olish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi Markaziy depozitariy va (yoki) investitsiya vositachisi buning oqibatida aksiyadorga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘lmaydi.

17. Agarda aksiyador o‘zining bank rekvizitlarini yoki dividendlarni o‘tkazish manzilini noto‘g‘ri ko‘rsatgan bo‘lsa yoki ko‘rsatib o‘tilgan rekvizitlar haqida Jamiyatga xabar bermagan bo‘lsa yoxud ular haqida o‘z vaqtida xabar qilmagan bo‘lsa, bular tufayli aksiyadorga yetkazilgan zararlar uchun Jamiyat javobgar hisoblanmaydi. Ushbu bandda ko‘rsatilgan sabablar tufayli aksiyadorning aybi bilan noto‘g‘ri o‘tkazilgan didvidendlar summasi Jamiyatga qaytarilgandan so‘ng, ularni aksiyadorga aniqlashtirilgan rekvizitlar bo‘yicha takroriy o‘tkazish ularni qaytarish va takroriy o‘tkazish uchun ketgan xarajatlar ushlab qolingan holda amalga oshiriladi.

18. Har qanday aksiyador Jamiyatga yoki Ro‘yxatga oluvchiga o‘zining dividend olish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar ro‘yxatiga qo‘shilgan/qo‘shtaganligi yuzasidan hamda aksiyalar bo‘yicha dividendlarni hisob-kitob qilish tartibi, dividendlar sumasini qo‘sib hisoblash va soliqqa tortish tartibi to‘g‘risida, to‘lash shartlari xususida axborot taqdim etish so‘rovi bilan murojaat qilish huquqiga ega. Jamiyatga so‘rov kelib tushgan taqdirda u so‘rov kelib tushgan kundan boshlab yetti ish kuni ichida aksiyadorga javob tayyorlaydi va agar axborot olishning o‘zgacha tarzi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, uning pochta manziliga jo‘natadi.

21. Jamiyatning aksiyalari bo‘yicha dividendlar olish huquqiga Jamiyat aksiyadorlarining tegishli dividendlar to‘lovi haqidagi qaror (e’lon) qabul qilinuvchi umumiy yig‘ilishida qatnashish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar ro‘yxati tuziladigan sanada tuzilgan ro‘yxatga kiritilgan shaxslar ega.

22. Jamiyat aksiyadorlarga o‘zlariga tegishli aksiyalar bo‘yicha

daromadlarni to‘lash chog‘ida soliq agenti hisoblanadi va qo‘sib hisoblangan dividendlarni to‘lashni O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq qimmatli qog‘ozlardan olinadigan daromadlar uchun o‘rnatilgan soliqlarni

ushlab qolgan holda amalga oshiradi. O‘ziga nisbatan soliqqa tortishning standart stavkalari qo‘llanilmaydigan aksiyador, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tasdiqlovchi hujjatlarni Jamiyatga (uning tarafidan jalb etilgan To‘lov agentiga) taqdim etadi. Agar aksiyadorga nisbatan qo‘llaniladigan soliq stavkalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar Jamiyatga (To‘lov agentiga) unga dividendlar to‘langandan so‘ng kelib tushgan bo‘lsa, ortiqcha to‘langan soliqni qaytarish Jamiyat (To‘lov agenti) tomonidan amalga oshirilmaydi.

#### **4. E’LON QILINGAN DIVIDENDLAR TO‘LOVI UCHUN JAVOBGARLIK**

23. Jamiyat har bir turdagи aksiyalar bo‘yicha e’lon qilingan dividendlarni to‘lashga majbur.

24. Jamiyat aksiyadorlariga dividendlarni to‘liq va o‘z vaqtida to‘lash uchun Jamiatning Ijroiya organi (Boshqaruvi) javobgar hisoblanadi. Ijroiya organning harakatlari ustidan nazorat Jamiatning Kengash tomonidan Audit qo‘mitasi bilan birgalikda amalga oshiriladi.

25. Hisoblangan dividendlar to‘lovini ta’minlash maqsadida Kengash o‘z majlislarida dividendlar to‘loving borishi haqidagi masalani ko‘rib chiqadi. Jamiat Ijroiya organining aybi bilan dividendlar to‘liq yoki o‘z vaqtida to‘lanmagan taqdirda Kengash aybdor shaxslarning javobgarligi choralarini belgilaydi va tegishli sanksiyalar qo‘llaydi yoki ularni qo‘llashni boshlaydi.

26. Jamiat tomonidan o‘z majburiyatları bajarilmagan taqdirda, aksiyadorlar har bir turdagи aksiyalar bo‘yicha e’lon qilingan dividendlarni to‘lashni sud tartibida talab qilishga haqli.

27. Dividendlardan soliq ushlab qolish va o‘tkazish yuzasidan Jamiat zimmasiga yuklatilgan soliq agenti majburiyatlarini bajarmaganlik yoki munosib tarzda bajarmaganlik uchun Jamiat O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javob beradi.

#### **5. AXBOROTLARNI OSHKOR ETISH TARTIBI**

28. Ushbu Siyosat hamda unga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘srimchalar Jamiat tomonidan Jamiatning internet tarmog‘idagi veb-saytida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan muddatlarda oshkor etiladi.

29. Jamiat yagona aksiyadori yig‘ilishi natijalari bo‘yicha axborotni ahamiyatli faktlar to‘g‘risixabarlar shaklida qonunchilikda ko‘zda tutilgan muddatlarda oshkor etadi.

30. Jamiat tomonidan dividendlar to‘lash bo‘yicha o‘z majburiyatlarini ijro etganlik faktiga doir tegishli axborotni Jamiat ahamiyatli faktlar to‘g‘risida xabarlar shaklida qonunchilik tomonidan o‘rnatilgan muddatlarda oshkor etadi.

## **6. YAKUNIY QOIDALAR**

31. Ushbu Siyosat Jamiyat Kengashning, uning majlisda ishtirok etayotgan yoki sirdan ovoz berishda ishtirok etayotgan a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan qaroriga binoan tasdiqlanadi.

32. Mazkur Siyosatga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Jamiyat Kengashning, uning majlisda ishtirok etayotgan yoki sirdan ovoz berishda ishtirok etayotgan a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan qaroriga binoan tasdiqlanadi.

33. Basharti agar mazkur Siyosatning ayrim moddalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan va/yoki Jamiyat Ustavi bilan zid kelib qolsa, ushbu moddalar o'z kuchini yo'qotadi hamda Siyosatga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar mazkur moddalar bilan tartibga solinuvchi masalalar yuzasidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va /yoki Jamiyat Ustaviga tayanib ish ko'rish joiz.